

YOSH OILALARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Baratov Nasriddin Karshibayevich

JDPU, o'qituvchi

ARTICLE INFO.

Katil so'zlar: Oila psixologoyasi, jamiyat, oila, psixologik yetuklik, huquqiy, tibbiy, jismoniy, ma'naviy, malaka, ko'nikma, vazifa.

Annotatsiya

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shu asosda ushbu maqolada yosh oilalarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Dunyo hamjamiyati bilan har xil yo'nalishlarda birgalikda hamkorlik aloqalarini tashkil qilish, oldimizda turgan moliyaviy va ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etish hamda jamiyatimizni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirish asosida xalqimiz farovonligini ta'minlash, fuqarolarimizning, oila va kelajak yosh avlodning har tomonlama barkamol tarkib topishi, dono, ilg'or fikrli va zakovatli bo'lishiga intilmoqdamiz. Ushbu masalani amalga oshirish uchun esa, eng avval, oilaning, shu jumladan yosh oilaning turmush tarzi sog'lom bo'lishiga erishish lozim. Yosh oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro-hurmat shuningdek ahillikni ta'minlash – milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda, oilaning el-yurtning asosiy tayanchi bo'lishdek muqaddas vazifasini ado yetishini ta'minlab beradi. Bunda yoshlarning oilaviy hayotga yetukligi muhim ahamiyat kasb etadi. Nikohga yetuklik - yoshlarning oila qurish motivlari, nikohgacha bo'lgan davrga qadar bir-birlarini tanish muddati, shart-sharoitlari, bo'lg'usi oilaviy hayot haqidagi fikr tasavvurlari kabilar bilan belgilanadi.

Oilaga yetuklik bu - oila quruvchi ikki yoshning jismoniy, jinsiy, huquqiy, moliyaviy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi jihatlaridir. Shaxsning psixologik yetukligi, dastavval, uning har xil hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni xushyor baholay olishida ko'zga tashlanadi. Bu xushyorlik, amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay ola bilish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini bilish, malaka va qobiliyat xususiyatlarini yetarlicha baholay olishda namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlarning o'z qobiliyat xususiyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yish jihatlariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni o'ylab fikrlab tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash muammosida yoshlarimizning o'zlarini orttirib baholashi, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani talab qilish tufayli ko'proq xatoga yo'l qo'yish xollari kuzatiladi. Ruhan yetuklikning muhim mezonlaridan biri insonni oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, pozitsiyasini bilishi, zarur bo'lganda oila borasida o'z qarashlarini himoya qila olishidir.

Keyingi yillarda oila-nikoh munosabatlari o'zgarib bormoqda. Bu boradagi o'zgarishlarga:

1. oilaning jamiyat oldidagi vazifalarining o'zgarib borishi;
2. oila a'zolari sonining va tug'ilishning kamayib ketishi, murakkab ko'p oilali tipidan, alohida mavjud bo'lgan oilalar tipik xususiyatiga aylanib borayotganligi;

3. oilaviy ijtimoiy munosabatlar tizimida er-xotin vazifalarining va oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarib borayotganligi;
4. Ayollardagi reproduktiv(turli holatlardagi) rivojlanishining o'zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin.

Oila psixologiyasiga doir eng muhim bo'lgan bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Nikoh oldi mezonlari qatoriga oila qurayotgan ikki yoshning oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish vaqti (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari; ularni o'zlarini bo'lg'usi oilaviy hayotlari to'g'risidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Masalan, nikohga yetuklik deyilganda, oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, moliyaviy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash lozim. Ularning o'rtasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlariga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar belgilangan jihatlar bo'lsa, moliyaviy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar bir oz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligiga ko'ra ajralib turadi.

Oilaviy hayotda jinsiy hayot psixologiyasi to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli kasblar tomonidan berilgan ma'lumotlarni majmuaviy tahlil qilingan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajralishgan er-xotinlarda jinsiy munosiblikning u yoki bu tarzda bo'lishi (er-xotinning nomutanosibligi) sabab bo'lmoqda. Albatta, o'zaro ishonch sevgi, tuyg'u va hurmat hislari, qiziqishlari va niyatlarning umumiyliigi hislari qisqa vaqt oralig'ida yuzaga kelgan. Shunga ko'ra shoshilinch oila qurgan juftlarga jinsiy hayot psixologiyasi borasidagi bilim ko'nikmalar o'z-o'zidan yordam bera olmasligi mumkin. Yoshlarning nikohga jinsiy yetuklik muamosidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek, yana bir marta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy, moliyaviy, ma'naviy, axloqiy va psixologik yetukliklardir.

Fuqarolik huquqiy yetukligi, insonning huquqiy jihatidan kamolga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish imkoniyati, farzand ko'rish huquqiga ega bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi. Kasb-hunar yetukligi bu ham ancha murakkab psixologik tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan u qandaydir bir bilim yoki kasbni hunar kollejni, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish borasidagi zarur bo'lgan ma'lum bilimlarga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Shaxsning yetukligining yana bir jihati ijtimoiy-moliyaviy yetuklikdir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay olishini nazarda tutiladi. Yoshlarni oila qurishlarida, ularning moliyaviy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega. Gap shaxsning ijtimoiy psixologik yetukligi haqida gap borgudek bo'lsa, bundan holatlarda uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarini hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu boradigi hushyorlik, amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini yetarlicha ob'ektiv baholay olishda ham o'z aksini topadi. Ammo, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyat xususiyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan muammolarni qo'yib olish hollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni idrok etish, tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimiz ko'proq xatoga o'zlarini yuqori baholashga, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan imkon qadar ko'proq narsani kutishga yo'l qo'yish hollari ko'proq kuzatiladi. Psixologik yetuklik, inson huquqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa insonlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabi holatlarda namoyon bo'la oladigan ma'naviy xususiyatlarning tarkibiy jihatlarini o'ziga biriktiradi. Psixologik yetuklikning eng muhim me'zonlaridan biri shaxsning oilaviy ijtimoiy muammolarini adolatli xal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashiga ega bo'lishi, lozim bo'lganda oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalarini oldida himoya qila olishidir.

Demografik nuqtai nazardan olib qaralganda, oila qurish deganda ma'lum bir odamlarni emas, balki butun bir avlodning oila qurishi nazarda tutiladi. Bu o'rinda to'liq ishonch bilan aytish joizki, avlod yosh jihatidan qanchalik katta bo'lsa, u biz ko'rib chiqayotgan jihatlarining har biri bo'yicha ko'proq yetuk bo'ladi. 20-24 yoshdagi guruh, 20 yoshdan kichik bo'lgan avlodga qaraganda ko'proq hayotiy malakaga ega bo'ladilar. 1-avlod vakillaridan ijtimoiy – huquqiy yetuklik darajasi yuqoriroq bo'ladi, sababi aynan shu yoshda ko'pchilik yoshlar o'rta yoki oliy o'quv yurtlarini tamomlagan, u yoki bu kasb-hunarni to'laligicha egallagan bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi»da erkak va ayollar uchun turmush qurishdagi o'rtacha yosh sifatida 18 yosh belgilangan. Bu yoshni mahalliy qarorga ko'ra, alohida istisnoli jihatlarini hisobga olib, ayollar uchun bir yoshga qisqartirish mumkin bo'ladi. Turli mamlakatlarda urf-odatlar va milliy an'analarga bog'liq holatlarda erkak va ayollarning turlicha minimal nikoh yoshi belgilangan. Masalan, erkaklar uchun 14 yoshdan (Irlandiya, Ispaniya va Lotin Amerikasidagi ayrim davlatlarda) -21 yoshgacha (Polsha, Avstraliya, Germaniya va ayrim Skandinaviya davlatlarida) bo'lgan yosh davr orasiga to'g'ri keladi. Ko'pincha katta avlod vakillari, yoshlarni yetuk emaslikda aybdor deb xisoblaydilar. Lekin ayni paytda shunday yetilmaslikning ob'ektiv sabalari va shart-sharoitlari e'tibordan chetda qolishi tabiiy.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va texnikaviy holatlarning kechishi yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va kasb-hunar, texnik yetuklikning kechikib ketishiga sabab bo'ladi. Muammoning ikkinchi tomoni, yoshlarni ijtimoiy yetilishi bosqichlari va ko'rsatkichlarida ob'ektiv qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va ularni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi ishlarni amalga oshirishda bu hayotiy xaqiqatni doimo nazarda tutish lozimligidir.

Akseleratsiya jarayoni va boshqa omillar tufayli bolalarda jinsiy balog'atga yetish ularning bundan 70-100 yil oldingi o'tmishdoshlariga qaraganda 2 yilga erta rivojlanish ro'y bermoqda. Bu borada vaqtda maxsus ta'lim olish, kasb-hunar egallash va moliyaviy mustaqillikka erishish kamida 22-25 yoshga va undan keyinga surilib kelyapti. Yoshlarning jinsiy balog'atga yetishishi va ularning to'la iqtisodiy mustaqillikka erishishi vaqti o'rtasida kamida 5 yildan 10 yilgacha uzilish yuzaga kelib qolmoqda. Bu jihat, o'tgan avlodlarda kutilmagan bir qator murakkabliklarni va ularga bog'liq ravishda ro'y berishi mumkin bo'lgan noqulayliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kudlash joizki, yosh oilalarda munosabat tizimi asosiy rol o'ynaydi bunda ikki yoshning bir - birini tushunishi qilgan holatiga oiladagi tashqi ta'sirlarning yuzaga kelishining oldi olinadi. Psixologik nuqtai nazardan biologik, psixologik hamda ijtimoiy qovushish turlarining o'zaro almashib turishi yosh oilalardagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu o'rinda, tarbiya masalasi bo'yicha ota-onalar, mahallalar va jamoalarning birgalikdagi hamkorlikdagi harakatlari yaxshi samaraga olib keladi.

Oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, psixologik milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi me'zon hisoblanadi. Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida kerakli ko'nikmalar va malakalar shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni <https://lex.uz/docs/4789015>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son qarori <https://lex.uz/docs/4789015>

3. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. - T.: Universitet, 1997. - 157 b.
4. Samarov R.S. «Avesto»: ayol va oila masalasi // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1999, 8-son. 58-60 betlar.
5. Yusupov E. Oila ma'naviyat bulog'i. - T. 2003.
6. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. –170 b.
7. Akramova F.A. Yoshlarni oilaga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari // Oila va maktab. 2015. № 10.